

«Bir umrga yorqin tabassum» xalqaro bolalar

Stomatologik salomatlik darsini o'tkazish uchun qo'llanma ta'lim dasturi



Colgate kompaniyasi ko'magida O'zbekiston stomatologlar uyushmasi va Toshkent davlat stomatologiya instituti tomonidan o'tkazilayotgan "Bir umr hayratga soladigan tabassum" Xalqaro bolalar dasturiga xush kelibsiz. Ushbu dastur bolalarda yoshlik davrdan boshlab og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarish qilish borasida mustahkam ko'nikma hosil qilishga qaratilgan tadbirlar majmuini o'zida ifodalaydi. Butun dunyo bo'ylab **850 million nafar bola** 1991 yildan boshlab ushbu dasturda ishtirok etdi. O'zbekiston stomatologlar uyushmasi va Toshkent davlat stomatologiya instituti ko'magida dastur 2017 yilda bizning mamlakatimizda ham boshlanadi.

"Afsuski, O'zbekiston Respublikasining bir qancha mintaqasida yashovchi bolalar tishlarining zararlanish darajasi juda yuqori — 97 foizgacha. Shu sababli ushbu dasturning maqsadi bolalar orasida stomatologik kasalliklarni pasaytirishdan iborat. "Bir umr hayratga soladigan tabassum" dasturi stomatologik kasalliklarning oldini olishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bolalarga og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarish qilish ko'nikmasini singdirish va ularda bu ko'nikmani mustahkamlash, shuningdek bolalar hamda ular oilalarining stomatologlar bilan hamkorlik qilishi uchun poydevor yaratish imkonini beradi, bu esa stomatologik kasalliklarning samarali oldini olishning asosiy shartlaridan biridir".

O'zbekiston stomatologlar uyushmasi prezidenti
A. I. Xasanov
Toshkent davlat stomatologiya instituti rektori
J. A. Rizaev

"Bir umrga yorqin tabassum" dasturi sababli stomatologlar, stomatologik gigiyenistlar va o'qituvchilar uchun bog'cha va maktab bolalariga og'iz bo'shlig'ini parvarishlash qoidalarini o'rgatish jarayonini tashkil-lashtirish ancha osonlashdi. Bu kompleks dastur 5-9 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u mavjud o'quv planiga oson kiritiladi va stomatologik klinika va o'quv dargohining talablaridan kelib chiqib, oson moslashadi.

- O'quv metodikasi stomatologiya, ta'lim va xalqaro madaniyat sohasidagi ekspertlarning xalqaro konsulta-tiv kengashi yordamida ishlab chiqilgan. Didaktik materiallar bolalar psixologiyasi xususiyatlarini hisobga olgan bo'lib, ular bolalarni og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga o'zlari javobgar bo'lishga undaydi.
- Dasturning multimediya qismida ikki multiplikatsion qahramon berilgan. Ular – stomatologlar doktor Quyvon va doktor Tabassum. Ular bolalar uchun og'iz bo'shlig'i gigiyenasi olamiga yo'l boshchi bo'ladilar. Qo'llanishi oson bo'lgan didaktik materiallar bolalardagi o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishni butun o'quv yili davomida ushlab turishga yordam beradi.
- O'quv jarayoni va og'iz bo'shlig'ini parvarishlash borasidagi bilimlarni kuchaytirishga bolaning oila a'zolari-ni jalb etish muhimligini ham unutmaslik kerak.

Stomatologik salomatlik darsini o'tkazish metodikasi bilan tarnishing va "Bir umrga yorqin tabassum" dasturi ishtirokchisiga aylaning!

BOLALARGA BIR UMRGA YORQIN TABASSUM HADYA ETING!



STOMATOLOGIK SALOMATLIK DARSINI O'TKAZISH METODIKASI MAVZU: "TISHLAR SHAHRIGA SAYOHAT"

MASHG'ULOT MAQSADI:

Yangi so'zlar va og'iz bo'shlig'i gigiyenasining asosiy qoidalarini o'yin shaklida o'rganish. Jag'lar modelida tishni to'g'ri tozalash texnikasini mashq qilish, uyda foydalanish uchun berilgan materiallar yordamida darsda olingan bilimlarni mustahkamlash.

DARSGA TAYYORLANISH:

- ✓ Proyektor va ekranni, ovoz kuchaytirgichlar yoki plazma panelini yoqish uchun tayyorlang
- ✓ Multfilmni qo'yib, tekshirib ko'ring
- ✓ Sinfda "Tish himoyachisiga aylan" plakatin osing
- ✓ Ko'rgazmali qurollar – jag'lar modeli va tish cho'tkasini tayyorlang
- ✓ Sinfdagi yoki bog'cha guruhi-dagi barcha bolalar uchun uyda foydalanishga mo'ljallangan tarqatma materiallarni tayyorlang

DARS TUZILMASI (40 DAQIQA)

- 1 Bolalar bilan tanishish
- 2 Tushunarsiz so'zlarni o'rganish
- 3 Multfilmni ko'rish
- 4 Og'iz bo'shlig'ini parvarishlash qoidalarini (plakat bilan ishlash)
- 5 Tish tozalash texnikasi (jag'lar modeli bilan ishlash)
- 6 Uy ishi va materiallarni tarqatish

1. BOLALAR BILAN TANISHISH VA NOTANISH SO'ZLARNI O'RGANISH (5 DAQIQA)

O'ZINGIZNI TANISHTIRING

Agar bolalar bilan tanish bo'lmasangiz, ularga stomatolog (stomatologik gigiyenist/talaba) ekaningizni va bugun ularga salomatlik darsini o'tishingizni ayting.

NOTANISH SO'ZLARNI YOZING

Bolalarga tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlarni doskaga yozing: stomatolog, tish karachi, tish lentasi, og'iz chayish uchun suyuqlik, ftorid.

SO'ZLARNI MUHOKAMA QILING

Bolalarga tushunarsiz bo'lgan so'zlarni muhokama qiling.

MULTFILM KO'RISHGA TAYYORLANG

Bolalarni multfilm ko'rishga tayyorlang: ularga multfilmdagi voqealar bolaning yotog'ida boshlanishini ayting. U uyg'onib esnaganida ko'z oldimizda yarqirab turgan Tishlar shahri payda bo'ladi, unda Tish himoyachilari istiqomat qiladilar.

2. MULTFILMNI KO'RISH (15 DAQIQA)



3. OG'IZ BO'SHLIG'INI PARVARISHLASH QOIDALARI (PLAKAT BILAN ISHLASH, 5 DAQIQA)

MULTIFILMNI MUHOKAMA QILING

Multifilmidagi voqeani muhokama qiling va bolalar uni yaxshi tushunishganiga ishonch hosil qiling.

Bunda beriladigan savollar:

- Multifilmning asosiy qahramonlari kimlar? Sizga yoqqan qahramonning ismini va uning superqurolini ayting.
- Kariyes va uning kariyes chaqiruvchi maxluqlari nima qildilar?
- Karach tishlarimizni qanday zararlaydi?

BILIMNI MUSTAHKAMLANG

Multifilm ko'rish jarayonida olingan bilimlarni "Haqiqiy tish himoyachisiga aylan" plakati yordamida mustahkamlang:

- Bir necha bolalarni plakat oldiga chaqiring. Ularning har biri plakatdagi qoidalaridan birini baland ovozda o'qib beradi.
- Butun sinf bilan og'iz bo'shlig'i gigiyenasi asoslarini jo'r bo'lib takrorlang.



Tishlarni fluoridli tish pastisi bilan, kuniga 2 marta tozalang: nonushtadan so'ng va uyquga yotishdan avval



Tish tozalash lentasidan har kuni foydalaning



Har gal tishni tozalagach, fluoridli og'iz chayish suyuqligidan foydalaning



Shirinliklar va chipslar bilan kamroq tamaddi qiling



Stomatolog ko'rigidan yiliga 2 marta doimiy o'tib turing

4. TISH TOZALASH TEXNIKASI (MODEL BILAN ISHLASH, 10 DAQIQA)

BOLALARDAN SO'RANG

Bolalardan: "Haqiqiy tish himoyachisiga aylanishni va Superqahramonlar komandasiga qo'shilishni istaysizmi?" - deb so'rang. Muhokamadan so'ng, "Bu uchun biz yorqin tabassumning superkuchini qo'lga kiritishimiz va tishlarni to'g'ri tozalashni o'rganishimiz kerak. Bunda bizga plakat va og'iz bo'shlig'i modeli yordam beradi" - deb ayting.

TISH TOZALASHNI KO'RSATING


Bolalarga tish tozalash bosqichlarini plakatdan ko'rsating. So'ngra, jag'lar modeli va tish cho'tkasi yordamida buni namoyish eting (agar ular sizda mavjud bo'lsa).

DOSKAGA TAKLIF ETING

Bu jarayonni qadam-baqadam qaytarish uchun, bir necha o'quvchilarni navbat bilan doskaga chaqiring.

1. TASHQARIDAN

Har bir tishni milklardan tishning chetiga qarab, tepadan-pastga ishqab yuving




2. ICHKARIDAN

Milklardan tishning chetiga qarab, tepadan-pastga ishqab yuvib, har bir tishning ichki yuzasini tozalang



3. JAG'TISHLARI

Har bir tishning chaynash yuzasini oldinga va orqaga harakatlar bilan ishqab, tozalang



4. OLD TISHLARNING ICHKI YUZASI

Tish cho'tkasining uchidan foydalanib, tepa va pastdagi old tishlarning orqa devorini ishqab, tozalang



5. TIL

Og'izda badbo'y hid paydo qiluvchi bakteriyalarni ketkizish uchun, tilni ham tozalashni unutmag



5. UY VAZIFASI VA BOLALARGA MATERIALLARNI TARQATISH (5 DAQIQA)

BOLALARGA E'OLON QILISH

Bolalarga haqiqiy Tish himoyachisiga aylanish uchun ko'p mashq qilish kerakligini ayting. Shuning uchun bugundan boshlab ular superkuch mashqlarini Tish himoyachisining maxsus tish tozalash kalendarida belgilashlari lozim.

KALENDARDA FOYDALANISHNI TAKLIF ETISH

Bolalarga ota-onalari bilan birgalikda kalendarini vannaxonaga yoki uyning ko'rinadigan joyiga osishni va unda har kuni ertalab va kechqurun tish tozalagandan so'ng belgi qo'yishni taklif eting.

KALENDARDA ISM YOZISH

Bolalarga kalendarining yuqori qismida o'z ismlarini yozishga yordam bering.

KALENDARNI QAYTARISH

Bir oydan so'ng kalendarini qaytarib olib kelishni iltimos qiling. Shunda ular haqiqiy Tish himoyachilari diplomiga ega bo'ladilar.

MATERIALLARNI TARQATISH

Bolalarga uyda ishlatish uchun mo'ljallangan materiallarni tarqating.

DARS YAKUNI

Dars yakunida bolalardan ularga dars yoqqanini so'rang. Ularga mashq qilishda omdalar va tish himoyachilari komandasiga tezroq a'zo bo'lishlarini tilang!



"Bir umrga yorqin tabassum" stomatologik kasalliklarning oldini olish dasturi o'quv materiallari

Salomatlik darslarini o'tkazish uchun qo'llanma

Bu dastur yo'riqnomasi istagan insonga hoh u stomatolog, gigiyenist, maktab o'qituvchisi va bog'cha tarbiyachisi yoki farzandini sevuvchi ota-ona bo'lsin bolalar uchun stomatologik salomatlik darsini qiziq va foydali o'tkazishga yordam beradi.



"Doktor Quyon va Tish himoyachilari" multiplikatsion filmi

Doktor Quyon va uning hamkasbi, Doktor Tabassumning sarguzashtlari haqidagi quvnoq multifilm. Ular Superqahramonlar jamoasi - Tish himoyachilari bilan birga tishlar sog'ligining yovuz dushmani Kariyes bilan kurashadilar. Sizing tarbiyalanuvchilaringiz ularning maroqli sarguzashtlarini benihoya qiziqish bilan kuzatadilar. Multifilm 15 daqiqa davom etadi. Siz uni www.colgateprofessional.ru saytidan yuklab olishingiz mumkin.



"Haqiqiy Tish himoyachisiga aylan" plakati

Plakat multifilmida berilgan ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi. U e'tiborni tishlarni to'g'ri tozalash texnikasiga va o'g'iz bo'shlig'ini parvarishlashning asoslariga qaratadi.



Tish himoyachisining tish tozalash kalendar

Bu rangdor kalendar bolani xursand qiladi va tishlarni tozalash kerakligini va og'iz bo'shlig'ini parvarishlash muhimligini unga har kuni eslatib turadi. Uning orqa tomonida ota-onalar uchun ma'lumot berilgan. Dars oxirida bu tish tozalash kalendarini har bir bolaga tarqating.



Ota-onalar uchun ma'lumot

Tish tozalash kalendarining orqa tomonida ota-onalar uchun foydali ma'lumotlar berilgan. Shu jumladan, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi asoslari va amaliy maslahatlar berilgan bo'lib, ular oilaning kundalik hayotiga tish va milklarni to'g'ri parvarishlash prinsiplarini oson joriy etishga imkon beradi.

Tish himoyachisi diplomi



Bola kalendarini to'ldirgach, stomatolog yoki o'qituvchi dasturda qatnashgan bolalarni ularning ismi yozilgan Tish himoyachisi diplomi bilan tantanal ravishda taqdirlaydi.

FARZANDINGIZ OG'IZ BO'SHLIG'INI PARVARISH QILISH VA SOG'LOM OVQATLANISH QOIDALARINI MAROQ BILAN O'RGANISHI UCHUN UNGA YORDAM BERING — BOLALARINGIZ UCHUN MO'LJALLANGAN "MENING YORQIN TABASSUMIM" ILOVASINI KO'CHIRIB OLING, BU HAQDA DO'STLARINGIZ VA TANISHLARINGIZGA SO'ZLAB BERING!



Eslatma: Tish tozalayotganingizda suv kranini yoping.

